

**MORMONLAR JAMOASI QARASHLARIDA QIYOMAT MASALALARI
TAHLILI**

*Anvarova Muslimaxon G‘iyosiddin qizi
O‘zbekiston xalqaro islom alkademiyasi
Qiyosiy dinshunoslik mutaxasisligi
1-bosqich magistranti*

Annotation

XIX asr o‘rtalari XX asr boshlariga kelib Yevropa, Amerika va Osiyo qit’alarida “payg‘ambarlik” va “armageddonizm” epidemiyalari avj oldi. AQShda 1840 yillarda “millerizm” nomi ostida paydo bo‘lgan harakat tez orada boshqa hududlarga ham tarqaldi. Natijada, aksariyat yirik dinlar doirasida yangi, “islohotchi” oqimlar yuzaga keldi. Ushbu maqolada jahondagi keng tarqalgan xristianlik dini yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan marmonlar jamoasi diniy g’oyalaridagi apokalipsis tushunchasining talqin etilishi va uning bugungi global olam va odamlarga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *sektalar, apokalipsis, mormonlar, xristianlik, esxotologik qarashlar.*

Marmonlar oqimiga 1830 yili Nyu-York (AQSH) shahrida Jozef Smit (1805-1844) ismli shaxs tomonidan asos solingan. Smit 1823 yilda Vermont shahridagi Sheron o‘rmonida kambag‘al va bechora tarafdarlariga Moroni nomli bir farishtaning o‘ziga vahiy olib kelganini da’vo qiladi. Unga ko‘ra Moroni, Smitga Nyu-Yorkdagi Kumora tepaligiga ko‘milgan, qadimgi Misr tilida yozilgan oltin lavhlari va ularni tarjima qilish uchun Urim va Thummin toshlarini keltirib bergen.

Jozef Smit matnlarni o‘qigani va farishta yordamida tarjima qilganini e’lon qiladi va uni nashr ettiradi. Shunday qilib, 1830 yilda “Mormon kitobi” bosib chiqarilgan. Kitobdagi buyruqqa binoan yangi bir cherkov qurilgan. Bu cherkov, “Iso Masihning Oxirgi Kun Azizlari cherkovi” deb nomlangan. Uning tarafdarlari esa shundan so‘ng “Mormonlar” deyila boshlangan.

Mormonlar e’tiqodiga ko‘ra, amerikaliklar isroil qabilalaridan kelib chiqqan va qizil oq tanlilardan tashkil topgan. Iso tirilganidan keyin oq tanlilar orasida faoliyat olib borgan, lekin uning cherkovi qizil tanlilar tomonidan vayron qilingan. Oxirgi oq tanlilar XV asrda yashagan Mormon bilan uning o‘g‘li Moronidir. Lavhlarni ana o‘salar ko‘mgan va ularni Smit topib olgan¹.

¹ Millet, Robert L. — Joseph Smith and Modern Mormonism: Orthodoxy, Neoorthodoxy, Tension, and Tradition // Brigham Young University Studies, 29 (Summer 1989) — P. 63.

Smit 1831 yilda yangi Quddusning Kirtlandda (Ogayo shatati, AQSH) qurilishiga doir vahiy olganini aytgan. Tarafdarlar sonini orttirish maqsadida mormonlar faol ravishda missionerlik bilan shug‘ullanganlar.

Siquvga olingan Mormonlar, Kirtlandni tashlab Missuriga; u yerda ham ayni holga duch kelgach esa Illinoisga ko‘chishga majbur bo‘lishadi. 1840 yilda botqoqzor o‘rnida Navu shahrini qurib o‘z markazlarini shu yerda tashkil etadilar.

Omadli kechgan bir-ikki yildan keyin Smit “Mormon kitobi”da aksi yozilgan bo‘lishiga qaramasdan, yangi bir “vahiy”ga asoslanib, ko‘pxotinlilikni targ‘ib qilgan va o‘zi bu ishni boshlab bergen. Uning bu fikriga jiddiy qarshiliklar bo‘lgan, natijada Smit ukasi va taraforlari bilan qamoqxonaga tashlangan. Qisqa bir muddatdan keyin ular mahbuslar tomonidan o‘ldirilgan.

Smitdan keyin mormonlarga Brijman Yang boshchilik qildi. U o‘limi ortidan 178 ta xotin va 49 ta bolani qoldirib ketdi. Mormonlar Yutada “Buyuk tuz ko‘li” qirg‘og‘ida, “Tuz ko‘li shahri” hozirgi Solt Leyk Siti shahrini qurbanlar. Ular bu yerda juda ham kuchayib ketganlar va ulkan mormon ibodatxonasini barpo etishgan.

“Iso Masihning oxirgi kun azizlari” sifatida o‘zlariga baho beruvchi mormonlarning e’tiqod asoslari J.Smit tomonidan tartibga solingan. Cherkov boshlig‘i “rais” deb nomланади².

Mormonlar Ota-Xudo, Iso Masih va Muqaddas Ruh bilan bog‘liq e’tiqodni tan oladilar. Ularga ko‘ra, Injil Xudoning so‘zidir, uni, xato qilmaslik sharti bilan tarjima qilish mumkin. Mormon kitobi ham Xudoning so‘zidir. Iso Masihning qayta tirilish joyi Amerika qit’asidir. Yangi Quddus Amerikada quriladi; shaxsan Isoning o‘zi uni boshqaradi, dunyo yangilanadi va xuddi jannatdek ko‘rinish oladi. Iso ming yillik sultanat quradi va unga imon keltirganlar, yordamchi bo‘lgan (mormon) lar najot topadilar.

Ular cho‘qintirishda suvgaga bo‘ktirish usulini qabul qilganlar. Ulug‘likda oldinga siljishni va hatto, ilohiylikkacha yuksalishni e’tirof qiladilar. E’tiqod asoslari orasida joy olgan ko‘p xotinga uylanish 1895 yilda V.Vudraft tomonidan bekor qilingan. Prichasheniye ya’ni “Poklanish” marosimi, sigaret va aroq harom bo‘lgani sababli faqatgina non va suv bilan amalga oshiriladi.

Mormonlar missionerlik faoliyatini olib boradilar va ushbu faoliyat butun dunyoga tarqaganligini ham aytib o‘tish joiz. Mormonlar nazdida har bir a’zo ikki yil missonerlik qilishi kerak. Missionerlik faoliyati bugungi kunda 4000 dan ortiq ayol va erkak mormon tomonidan olib borilmoqda. Ularning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi va ular o‘z hayotlarini missionerlik uchun bag‘ishlagan.

² Таевский Д. Секты мира. – Ростов ра Дону.: Феникс, СПб.: Северо-Запад, 2007. – С.86.

Bugungi kunda mormonlar dunyoning 160 mamlakatida faoliyat olib borib, taxminan 30 ming cherkov va 12 million izdoshlariga ega. Rasmiy xristianlik mormonlarni “adashgan oqim” sifatida e’tirof etadi.

Bibliyadan tashqari, mormonlarning uchta "muqaddas" kitobi bor, ularga Bibliya bilan bir xil darajada qaraladi, ular:

- "Mormon kitobi";
- "Ta'limotlar va ittifoqlar";
- "Qimmatbaho marvarid"³.

"Mormon kitobi" kitobi mormonlar ta'limotining asosini tashkil qiladi. Muqaddas Kitob va Mormon Kitobi o‘rtasida o‘zaro qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lgan joylarda, ikkinchisining bayonotlari haqiqat deb tan olinadi. Bu kitob 15 ta kichik kitobdan tashkil topgan bo‘lib jami 500 sahifadan iborat. Ular Amerikaning qadimgi aholisi haqida hikoya qiladi. Bobil minorasi qurilishi chog‘ida ichki adovat va kurash natijasida bo‘linib, o‘zini-o‘zi yo‘q qilgan Jarediyalar qabilasining Amerikaga kelishi. Miloddan avvalgi 600 yilda Lex payg‘ambar davrida Manashe qabilasining vakillari Amerikaga kelishishi hamda ularning avlodlari ikki guruhga bo‘lingani kabi voqealarni hikoya qiladi. Masih tirilishdan keyin nefiylargacha zohir bo‘lib, ularga jamoat qurishni buyurdi.

Mormonlar bu kitobni vahiy sifatida ko‘rishadi, ularning fikricha, u Iso va’z qilgan narsalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kitobdagagi ma'lumotlar tarixiy, arxeologik, etnografik dalillarga ziddir. Qolaversa, kitobning keyingi nashrlarida birinchi nashriga nisbatan goh ma’nosи, goh so‘zi, gohida qahramonlarida o‘zgarishlar kiritib kelinadi. So‘nggi o‘zgarishlar 1981-yilda amalga oshirilgan. Zamonaviy mormonlar aksariyat hollarda bu tafsilotlarni bilmaydi.

Mormonlar uchun najot abadiy halokat va abadiy hayot o‘rtasidagi chegara emas. Mormonlar Iso Masihning o‘limi barcha odamlarga qayta tirilish imkoniyatini bergeniga ishonishadi⁴. Qiyomat kunida qayta tirilishdan keyin har bir kishi quyidagi shohliklardan birida qilgan amallariga qarab mukofot oladi:

- Osmon shohligi – “Quyoshning ulug‘vorligi” - bu yerda odamlar xudolarga aylanadi va ularga Xudo ega bo‘lgan barcha kuch-qudrat va imkoniyatlar beriladi;
- Yer yuzidagi shohlik - "oyning ulug‘vorligi" - bu yerda faqat Muqaddas Ruh yashaydi va Iso Masih vaqtiga-vaqtiga bilan tashrif buyuradi;
- "Yulduzlarning ulug‘vorligi" - bu yerga Muqaddas Ruh vaqtiga-vaqtiga bilan tashrif buyuradi.

³ Таевский Д. Секты мира. – Ростов на Дону.: Феникс, СПб.: Северо-Запад, 2007. – С.89.

⁴ McConkie, Bruce. — What Mormons Think of Christ. — P. 28.

Marmonlar e’tiqodiga ko‘ra yuqoridagi uch shohlikdan hech biriga loyiq bo‘limganlar ham mavjud bo‘lib ular “halokat o‘g’illari” deb nomalanadi va shonsharaf shohligi bo‘limgan shohlikda azob chekishga mahkum bo‘ladi.

Shunday qilib, Xudo odamlarni “o‘z qilmishlari va qalblarining xohishlariga ko‘ra” hukm qiladi. Uning qaroriga qarab, har bir kishi uchta shohlikdan biriga joylashtiriladi. Marmonlar e’tiqodiga ko‘ra Yaratganning roziligiga erishish uchun inoyat “zarur, ammo etarli emas”⁵.

Mormonlar ruh mavjudlikning kamida to‘rt bosqichidan o‘tishiga ishonishadi. Ular quyidagilar:

- Samoviy Otaning ruhiy bolalari sifatida o‘limdan oldingi mavjudlik;

- Xudoning huzuridan tashqarida yer yuzidagi sinov va tajriba davri;

- Halok bo‘lgandan so‘n qayta tirilguncha marhumlar ruhi saqlanadigan “ruhiyu dunyoda” qolishi. U yerda tirikligida xushxabarni olish imkonи bo‘limgan holda vafot etganlar bu haqda uni qabul qilganlardan bilib olishlari mumkin. Shuning uchun ba’zi mormon tashkilotlari, xususan Iso Masihning Oxirgi kun avliyolari cherkovi o‘liklar uchun suvga cho‘mish marosimini o‘tkazadilar;

- Tirilish va Qiyomatdan keyin ko‘pchilik odamlar "shon-sharaf shohliklari" dan birida (samoviy, yer yoki celestial) yashash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xudoni, qasddan rad etgan va unga qarshi chiqqanlar halokat o‘g’illariga aylanadilar. Ular shonshuhrat shohliklaridan birida joy olishmaydi va Xudoni tanilgan holda Shaytonga xizmat qilishni tanlaganliklari uchun jazolanadilar, lekin ular. Ko‘pincha ularning yashash joyi “Tashqi zulmat” deb ataladi.

Jozef Smit fikriga ko‘ra, abadiy olam yoki ohiratdagi ruhlar bu dunyodagi ruhlarga o‘xshash. Inson bu dunyoga kelganda uning ruhi tanaga birikadi keyin vafot etgach qayta tiriladi va rahmatga ega bo‘lgan tanaga birikadi. Bunda bu dunyoda shaytonga ergashganlar qayta tirilganda tanaga ega bo‘lmasligini ta’kidlashadi. Bunga ular shaytonga insonga berilgandek tana berilmaganligini dalil qilishadi. Xulosa sifatida marmonlarda qayta tirilgan tana insonning uchinchi holati hisoblanadi. Bunda uch holat ham bir-biridan farqlanadi: birinchisi ruh, ikkinchisi jismoniy tana, uchinchisi rahmatga ega bo‘lgan (o‘zgarmas va o‘lmaydigan) tana.

Xristianlik manbasiga ko‘ra, Xudo insonni o‘lmas qilib yaratgan, biroq inson qilgan gunohi tufayli unga o‘lim berilgan. Shuning uchun u o‘zi yaratilgan tanada o‘lishi va qayta tirilishi kerak deyiladi. Marmonlarda esa qayta tirilgan tana dastlabki yaratilganidan butunlay farq qiladigan ilohiylikka ega bo‘lgan tana sifatida qaraladi. Ilohiy tanaga ega bo‘lmaydigan ruhlar esa baxtsiz bo‘ladilar.

Marmonlarda o‘limdan keyingi hayotga ishonch bor. Inson vafot etgandan so‘ng ruh tanadan chiqadi va boshqa olamga o‘tadi, ya’ni sekta adeptlarga ruhning yerda

⁵ Millet, Robert L. — Joseph Smith and Modern Mormonism: Orthodoxy, Neoorthodoxy, Tension, and Tradition // Brigham Young University Studies, 29 (Summer 1989) — P. 63.

mavjudligini va malum vaqt rohatda yoki asabda bo‘lishini uqtiradilar. Bizning vafot etgan yaqinlarimiz uzoqda emas. Ular bizni holatimiz va fikrlarimizdan xabardor deb uqtirishadi. Taqvodor yoki solih ruhlarda boshqa vafot etgan marhumlarning fikrlarini o‘qiy olish qobilyati paydo bo‘ladi. O‘lim oldida insonni yakkama yakka sud jarayoni kutadi. Sud natijasiga ko‘ra ruh jannat yoki do‘zax oldida turadi qachonki Isoning ikkinchi marta qaytib kelishi va yerda osmon podshohligini o‘rnatalishini kutadi.

Foydalanilgan manba adabiyotlar ro‘yxati

1. Бонч-Бруевич В.Д. Из мира сектантов. Сборник статей. М., 1922.-330 с.
2. Добреньков В.И. Современный протестантский теологический модернизм в США: его замыслы и результаты. М.:Изд-во Моск. ун-та, 1980. -248 с.
3. Григоренко А.Ю. Эсхатология, милленаризм, адвентизм: история и современность. Философско-религиоведческие очерки (научная издание). – СПб.: Европейский Дом, 2004. – 392 с.
4. McConkie, Bruce. — What Mormons Think of Christ. — P. 28.
5. Millet, Robert L. — Joseph Smith and Modern Mormonism: Orthodoxy, Neoorthodoxy, Tension, and Tradition // Brigham Young University Studies, 29 (Summer 1989) — P. 63.
6. Миронов О. Словарь религиозных терминов. – Воронеж.: Воронеж, 2002. – 256 с.
7. Таевский Д. Секти мира. – Ростов ра Дону.: Феникс, СПб.: Северо-Запад, 2007. – С.89.